



DINIY BAG‘RIKENGLIKNING DINIY MANBAVIY ASOSLARI

Annotation: *Mazkur maqolada Buxoroda yashab faoliyat olib borgan mutasavvif olimlarning asarlarida keltirib o‘tilgan bag‘rikenglik asoslarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni yoritib berilgan.*

Keywords: *Bag‘rikenglik, Qur‘oni karim, hadis, javonmardlik, tasavvuf, axloq, vijdon, vijdon erkinligi, e‘tiqod, adolat, aqida..*

**Information about
the authors**

Rajabova Rohila Zakirovna
*Buxoro Davlat Universiteti Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrasida o‘qituvchisi*

Sitorabonu Sobirova
*Islom tarixi va manbashunosligi
yo‘nalishi talabasi*
sitorabonusobirova@gmail.com

Bag‘rikenglik – jahonda turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot, hur fikr, vijdon hamda e‘tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bag‘rikenglik tinchlikka erishishni musharraf etuvchi va madaniyatga eltuvchidir. Bugungi kunda globallashuv sharoitida tasavvuf ilmiga oid manbalar bag‘rikenglikning insonlar hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berishda asosiy omil vazifasini bajaradi. Tasavvuf ilmi islom dinining bag‘rikenglikka asoslangan tamoyillarini o‘zida aks ettirgan qarashlar majmuasidir. Zero, tasavvuf ilmi islom diniga ikki xil yondashishning shakllanishiga olib keladi. Bir jihatdan turli mutaassib ekstremistik g‘oyalarga qarshi turishga xizmat qilsa, uning teskari noto‘g‘ri talqini esa turli tariqatchilik harakatlariga asos yaratib beradi. Uzoq asrlar davrida xalqimiz ma‘naviyatini boyitishga xizmat qilgan Muvorounnahr mutasaavvif allomalarining qarashlari bugungi kunda avj olib borayotgan salafiylik, jihodchilik hamda boshqa oqimlarning harakatlarini qoralaydi.

Inson tafakkuri va e‘tiqodi u tarbiya olgan oiladagi an‘analar asosida shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan bunga o‘qish, ish, ijtimoiy faoliyat va boshqa tashqi omillar qo‘shiladi. Har qanday inson umri davomida hayotning turli sohalarini qamrab oladigan u yoki bu diniy urf-odat hamda an‘analarga duch keladi. Shunday qilib, u oilaviy muhitdanoq diniy qadriyatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Bunday qadriyatlarga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘zini u yoki bu darajada dindor, deb bilishi mumkin. Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda IX asrda islom ta‘limotining takomili yo‘lida movarounnahrlik mutasavvif,



muhaddis, mutakallim, faqihlarning ham xizmati katta bo'ldi. Ularning asarlarida diniy ta'limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida dunyoqarashining shakllanish mohiyati talqin etilgan.

Tasavvufga oid manbalarda yoritilgan axloqiy tamoyillar orasida bag'rikenglikning alohida o'rni bor. Islom dini bag'rikenglikka targ'ib qiluvchi din ekanligi shubhasiz. Afsuski, so'nggi yillarda islom dini nomidan turli buzg'unchilik, odamlar o'rtasida xavf va qo'rquvni tarqatuvchi, tinch aholi qonini to'kish kabi qabih ishlarni qilayotgan insonlar ko'payib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich bu haqda "Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz" [1], degan edi.

IX-XIII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini xalq hayotida muhim o'rin egallaydi. Tasavvuf ulamolaridan Xoja Naqshbandiyaning "Dil ba yor-u dast ba kor" [2] degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Xususan, bu borada Respublikamizda vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik masalasi jamiyat ijtimoiy hayotida har doim muhim va dolzarb masala bo'lib kelgan. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, ularning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Diniy bag'rikenglik esa – xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadigan tushunchadir.

Tahlil va natijalar. Islom tarixi va madaniyati taraqqiyotida bag'rikenglik masalasi asosiy tamoyillardan bo'lib, bu borada mutasavviflar va sufiy shayxlar o'z qarashlari va g'oyalarini islom asoslariga tayangan holda manbalarda bayon etganlar [3]. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 3 yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi: BMT Bosh Assambleyasi 2018 yilning 12 dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. Bag'rikenglik aqidaparastlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir. "Bag'rikenglik" tushunchasi adolat va sabr tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, islom dinining muqaddas kalomi Qur'on karimda:

أَيُّهَا النَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَاكُمْ مِنْ ذَكَرٍ وَأُنثَىٰ وَجَعَلْنَاكُمْ شُعُوبًا وَقَبَائِلَ لِتَعَارَفُوا إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِنْدَ اللَّهِ أَتَقْوَمُ إِنَّ اللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٌ

"Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik. Abatta, Alloh nazdida (eng aziz) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir" [4], deb marhamat qilingan.

Yuqoridagi oyatning mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak: barcha insonlar Odam Ato va Momo Havodan tarqalgan. Alloh Taolo ularni turli-tuman xalqlar va qabilalarga ajratib qo'ygan. Turli qabilalarga bo'linishning sababi o'zaro tanishish va bir-birlariga nisbatan adolatli, muruvvatli bo'lishdir. Ayni damda islom dini boshqa dinlarga nisbatan mehr-muruvvatli, adolatli dindir. Hozirgi kunda O'zbekistonda boshqa elat, millat turli din vakillariga shart-sharoitlar yaratib berilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislaridan birida g'ayridin bo'lgan qo'shniga ham insoniylik yuzasidan yaxshi va chiroyli muomalada bo'lishga buyurganlar. Bu o'rinda sahobai kirom va tobeinlar hammamizga o'rnak va namuna ko'rsatishgan. Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston hududi qadimdan diniy bag'rikenglik borasida dunyoga namuna bo'lib kelgan. Shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan Burhoniddin Marg'iloniy, Abu Lays Samarqandiy, Alouddin Kosoniy kabi ulamolardan ta'rif



etilgan asarlarda o'zga din vakillariga nisbatan bag'rikeng bo'lish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan [5]. Buyuk ajdodlarimizning boy madaniyat va ma'rifat buloqlaridan bahramand bo'lgan xalqimiz nafaqat millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, balki dinu diyonat, imonu e'tiqod, odob-axloq, mehr-muruvvat, oila, farzand tarbiyasi, ota-ona hurmati va izzati borasida ham o'ziga xos keng fe'llik, sahovat va mo'tadillik tamoyillariga amal qilib kelmoqda.

Islom dinida boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik tamoyillari belgilab berilgan. Muqaddas hadislarda milatlararo mojarolar, qonli to'qnashuvlar qoralangan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Kim bekordan bekorga mujohid (islomni qabul qilmasdan islom diyorida kelishuv asosida yashovchi odam)ni o'ldirsa, Alloh unga jannatni harom qiladi",- deb marhamat qilganlar. Islom dinida turli millat vakillari, garchi dinlari va diniy e'tiqodlari o'zaro farq qilsada, bir-birlarining tillari, milliy urf-odatlar va qadriyatlarini hurmatlashga o'zaro totuv bo'lib yashashga da'vat etilgan. Diniy bag'rikenglik madaniyati – shaxsning diniy qadriyatlarni hurmat qilishi, boshqa dinlar, diniy urf-odatlar, o'zga diniy qadriyatlar, e'tiqodlar va turmush tarziga nisbatan sabr-bardoshlik, chidamlilik, vijdon pokligi hamda ruhiy poklanishidir.

O'zbekistonda barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berilgan va joriy qilingan qonunlar barcha dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
2. Hiraviy J. Risolai rahnamoi uqdashoi // Mole M. Naqshbandiyot. – Tehron, 1952. – B. 285-293; Qarang: Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti, 2005. 233 b.; Navro'zova G.N. Naqshbandiya-kamolot yo'li. Buxoro: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2007. 189 b.
3. Rajabova R.Z. Mutasavvif allomalar asarlarida bag'rikenglik asoslarining aks etishi. O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2024, [1/4]. issn 2181-7324. –B. 13-16.
4. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi - O'zbekcha tarjima, tarjimon: Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hujurot surasi, 13-oyat.
5. Rajabova R.Z. Uzbek scientists masterpieces in world funds// International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 2620 3502 p-ISSN : 2615 3785 Volume 2, Issue V, Oct-Nov 2019.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
8. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 229-233.